



Yunus Rajabiy – O‘zbekiston xalq artisti, milliy san’at rivojida ulkan hissa qo‘shgan bastakor, musiqachi, folklorshunos olim va ko‘plab iste’dodli musiqachilarning ustoz. Yunus Rajabiy asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelgan 1500 dan ortiq o‘zbek, tojik va uyg‘ur tillaridagi xalq qo‘shiqlari va navolarini jamlab, ularni yo‘qolib ketishdan saqlab qolgan.



Bastakor Yunus bobo

Abdulla Po‘latov

Bastakor Yunus bobo,
Navolari dilrabo!
Xalqqa qildilar xizmat,
Xizmatda-ku, ko‘p hikmat.
Kuylaganda “Shashmaqom”
Dillarga berar orom.
Undagi usul, kuylar,
Uzoq o‘tmishdan so‘ylar.
Xalqlarning oh-u zori,
Og‘ir kun intizori.
Ko‘z yoshi-yu fig‘oni,
To‘kilgan qutlug‘ qoni.
Barcha nolalar ayon,
Unda etilgan bayon.
Bastakor Yunus bobo,
Navolari dilrabo!





**Shashmaqom 2003-yilda UNESCOning
“Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi
durdonalari ro‘yxati”ga kiritilgan.**

**Shashmaqom o‘z ijrochilik an‘analari va qat‘iy
tizimga ega bo‘lgan kuy va ashulalar majmuyidir.**

**“Shashmaqom” fors tilida
“olti maqom” ma‘nosini anglatadi.**

Uning tarkibiga quyidagi maqomlar kiradi:

- | | | |
|-----------|----------|---------|
| 1. Buzruk | 2. Rost | 3. Navo |
| 4. Dugoh | 5. Segoh | 6. Iroq |

**Shashmaqom bunday ko‘rinishda XVIII asr
o‘rtalarida Buxoroda shakllanganligi uchun Buxoro
shashmaqomi ham deyiladi.**

**Maqomlar avloddan avlodga an‘anaviy og‘zaki
tarzda o‘tib, bunda “ustoz-shogird” uslubidan
foydalanilgan. Yunus Rajabiy “Shashmaqom”ni to‘liq
notaga tushirib, nashr ettirdi.**

**Maqom cholg‘u kuylari yakka cholg‘uda ham,
cholg‘uchilar ansambli bilan ham ijro etilishi
mumkin. Aksariyat hollarda g‘ijjak, dutor, nay,
rubob, qo‘shnay kabi cholg‘ularda yakka holda ijro
etib kelinadi. Ansambl ijrochiligida esa tanbur,
dutor, nay, qo‘shnay, g‘ijjak yoki sato (qo‘biz),
chang, qonun, ud, rubob va doiradan tashkil topgan
jamoalar ishtiroki ko‘proq uchraydi.**



1. She'r kim haqida?
2. Yunus Rajabiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. "Shashmaqom" kuyiga qanday ta'rif berilgan?
4. "Xizmatda-ku, ko'p hikmat", deganda nimani tushundingiz?



O'rganganlaringiz asosida ma'lumotlar ayting.

Yunus
Rajabiy

...

Shashmaqom

...

Cholg'u
asboblari

...



"Bobolarning buyuk ishlari" mavzusida qiziqarli ma'lumotlar toping.

